

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XAKIMOV MURODBEK AKRAMOVICH

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARINI O‘QITISHDA
MOBIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI
(BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI
MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Xakimov Murodbek Akramovich

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanish metodikasi (Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fani misolida) 3

Хакимов Муродбек Акрамович

Методика использования мобильных технологий в обучении студентов направления начальное образование (на примере предмета Информационные технологии в начальных классах)..... 27

Khakimov Murodbek Akramovich

Methodology of using mobile technologies in teaching students of primary education (using the subject Information technology in primary grades as an example)..... 53

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XAKIMOV MURODBEK AKRAMOVICH

**BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI O'QITISHDA
MOBIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI
(BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI
MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Ped9501 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asqarova O'g'ulxon Mamashakirovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Alibek Qodiraliyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Eshnazarova Marg'ubaxon Yunusaliyevna
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil "18" oktyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01, faks: (+99869) 234-85-02, e-mail: info@namdu.uz).

2025 Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" oktyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "4" 10 dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



Fayzullayev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor

Sh.K.Xujamberdiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), professor

N.A.Otaxanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim jarayonining rivojlanishi zamonaviy axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayniqsa, mobil texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda mobil texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib, talabalarning bilim olish jarayonini yanada qulay, moslashuvchan va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida mobil texnologiyalardan foydalanish pedagogik jarayonni takomillashtirish, darslarni qiziqarli tashkil etish imkoniyatini belgilash zaruratini ko'rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-yil 25-sentabrdagi 70-bosh Assambleyasida qabul qilingan 2016-2030 yillarga mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ning asosiy yo'nalishi sifatida talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishni tarkib toptirish orqali axborot madaniyati, intellektni rivojlantirish belgilab berildi.

Dunyo miqyosida ta'lim tizimini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash tendensiyasi kuchaymoqda. Shulardan biri – mobil texnologiyalar asosida o'qitish (mobile learning)– zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Ushbu yondashuv talaba va o'quvchilarga istalgan joyda va vaqtda o'quv materiallarini o'zlashtirish, mustaqil va moslashuvchan o'rganish imkonini beradi. Mobil texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida, xususan, AQShning MIT – Massachusetts Texnologiya Institutida MIT Media Lab'da mobil texnologiyalar asosidagi ta'lim vositalari, Stanford universiteti "SMILE" (Stanford Mobile Inquiry-based Learning Environment) dasturi orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va savol berish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mobil ta'lim muhitini yaratish, Buyuk Britaniyaning College London Universityda UCL Knowledge Lab mobil texnologiyalarning ta'limdagi ijtimoiy va madaniy jihatlarini o'rganishga ixtisoslashtirish, Singapurning Nanyang Technological Universityda NTU "Mobile Learning Toolkit" dasturini ishlab chiqqan bo'lib, bu vosita o'qituvchilarga mobil texnologiyalarni samarali joriy etish, Avstraliyaning Melburn universiteti "Learning with Mobile Technologies" loyihasi orqali ta'lim jarayonida differensial yondashuv asosida mobil texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida qaralmoqda. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar, asosan, mobil qurilmalar (smartfon, planshet, noutbuk va boshqalar) orqali ta'lim samaradorligini oshirish, interaktivlikni kuchaytirish, raqamli savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekistonda mobil texnologiyalar uzluksiz ta'lim tizimida nafaqat bilim olish vositasi, balki tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vositalari sifatida xizmat qilmoqda. Bu tayanch kompetensiyalarga axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi (talabalar mobil ilovalar, elektron darsliklar, bulutli xizmatlar orqali axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish va baholash ko'nikmasini egallaydi), o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi (talabalar o'zlashtirish darajasini real vaqt rejimida monitoring qiluvchi dasturlar yordamida

mustaqil o'rganish rejalarini tuzadi), ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyasi (mobil texnologiyalar yordamida ochiq muammo asosida loyihaviy topshiriqlarni bajarish, kontent yaratish orqali ijodiy fikr rivojlanadi), axborotli va raqamli savodxonlik kompetensiyasi (smartfon va planshetlarda ishlovchi ta'limiy ilovalar orqali raqamli vositalardan samarali foydalanish o'rgatiladi), muloqot va hamkorlik kompetensiyasi (Mobil messendjerlar Telegram, Zoom, MS Teams va b. orqali guruhlarda ishlash, fikr almashish, masofadan turib jamoaviy loyiha bajarish ko'nikmalari shakllanadi) kiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha vazifalar aniq belgilab berildi. Xususan, "axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish¹" vazifasi qo'yildi. Ular talabalarning axborot savodxonligini oshiradi, o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi, samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy va axloqiy jihatlarni nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-87-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 13-oktyabrdagi PF-170-son "Raqamli texnologiyalarni jadal joriy qilish orqali ta'lim tizimini transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 6-noyabrdagi PQ-4512-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori hamda 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori asosida "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Prezident Administratsiyasining 2023-yil 27-apreldagi 08-740-sonli topshirig'iga muvofiq O'zbekistonda 1-sinf o'quvchilari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining 2023-2024-o'quv yilidan joriy etilishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari, masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llash muammolariga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan va bir qator ilmiy maqolalar chop etilgan. Jumladan, A.Abduqodirov, Q.Olimov, M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, F.Zokirova², R.Boqiyev, N.Tayloqov, A.Maxmudov, U.Yuldashev, A.Sattorov, B.Mo'minov, F.Muradova, A.Ashirova, I.Isoqov, A.Po'latov, M.Fayziyev, A.Hayitovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z izohini topgan. Mobil texnologiya tushuncha sifatida ta'riflab, undan ta'limda foydalanish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/5030957>;

² Зокирова Ф. М. Информатика ва ахборот технологиялари : дарслик / Ф. М. Зокирова. – Тошкент : Ўқитувчи, 2007. – 240 б.;

hamda oliy ta'limda ta'lim oluvchilarning mobil texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, mobil texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish va raqamli texnologiyalardan foydalanishni turli muammolari bilan M.Alimov, M.Fayziyeva³, U.Hayitov, M.Nafasov, P.Nuraliyeva⁴, S.Qahhorov⁵, M.Turg'unboyeva⁶, O.Shokirov⁷, D.Yusupova⁸, B.Xanimqulov va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan mobil o'qitish tizimlarida individual yondashuv va mobil ilovalarning ta'limga ijobiy ta'siri hamda ta'limda mobil texnologiyalar orqali multimedia vositalarini qo'llash masalalari bilan A.Avdeeva, S.Vasiyeva, S.Grigoryev, A.Ivanov, V.Kureychik, V.Kuklev⁹, A.Kuznetsova¹⁰, M.Novikov, E.Pirson, A.Titarov, N.Tikhomirov¹¹ kabi bir qator olimlar shug'ullanganlar.

Xorijlik olimlardan M.Ally¹², M.Bali, A.Chatti, M.Chen, J.Cheon¹³, R.Graham, L.Gray, J.Hamari, H.Crompton¹⁴, G.Hwang¹⁵, W.Johnson, Y.Kato, S.Kumar, N.Landers, D.Layt, H.Nakano, A.Park, W.Paul, M.Sharples, J.Traxler¹⁶, J.Taylor, D.Tomas kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida mobil texnologiyalar yordamida masofaviy ta'limni rivojlantirish, mobil o'qitishni keng joriy qilish, mobil texnologiyalar yordamida ta'limdagi o'quv platformalar samarali joriy etishning amaliy asoslarini yoritib berganlar.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, bugungi axborotlashuv, globallashuv va mobillashuv sharoitida o'quvchilarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, metodik modeli tuzilmasi hamda axborot-didaktik ta'minotini ishlab chiqish, baholash mezonlari orqali darajalarini aniqlash zarurati mavjudligi tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi.

³Fayziyeva M. R. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformasini yaratish va amaliyotga joriy etish. – Diss. ... texn. fan. bo'yicha. – Toshkent, 2022. – 145 b;

⁴Nuraliyeva P. E. Oliy ta'limda raqamli texnologiyalar orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish. – Diss. ... ped. fan. bo'yicha. – Toshkent, 2023. – 160 b;

⁵Qahhorov S.Q., Haitov U.H. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Ta'lim, 2023. – 110 b;

⁶Turg'unboyeva M. B. Masofaviy ta'limni raqamli texnologiyalar vositasida samarali tashkil etish masalalari // Ilmiy axborotlar. – 2022. – №1. – B. 73–78;

⁷Shokirov O. A. Ta'lim tizimida raqamli savodxonlikni shakllantirish // Pedagogik mahorat. – 2023. – №4. – B. 45–50;

⁸Yusupova D. Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida interfaol ta'limni tashkil etish metodikasi. – Diss. ... ped. fan. bo'yicha. – Toshkent, 2021. – 138 b;

⁹Куклев, В. А. Развитие систем мобильного обучения в условиях открытого и дистанционного образования: дис. ... канд. пед. наук / В. А. Куклев. – Екатеринбург, 2019. – 145 с;

¹⁰Кузнецова, А. А. Методика использования мобильного обучения в образовательном процессе / А. А. Кузнецова // Образование и наука. – 2018. – №3. – С. 102–108;

¹¹Tikhomirov, N. I. Mobile multimedia tools in digital education / N. I. Tikhomirov // International Journal of Emerging Technologies in Learning. – 2016. – Vol. 11(3). – P. 110–115.;

¹²Ally, M. Mobile Learning: Transforming the Delivery of Education and Training / M. Ally. – Edmonton: Athabasca University Press, 2009. – 290 p;

¹³Cheon, J., Lee, S. Mobile learning readiness in higher education: An empirical study / J. Cheon, S. Lee, S. Crooks, J. Song // Computers & Education. – 2012. – Vol. 59(3). – P. 1054–1064;

¹⁴Crompton, H. Mobile Learning: New Approach, New Theory / H. Crompton // Handbook of Mobile Learning. – New York: Routledge, 2013. – P. 3–14;

¹⁵Hwang, G.-J. Strategies for personalizing mobile learning systems / G.-J. Hwang // Computers & Education. – 2014. – Vol. 77. – P. 33–50;

¹⁶Traxler, J. Mobile Learning: A Handbook for Educators and Trainers / J. Traxler, A. Kukulska-Hulme. – London: Routledge, 2015. – 250 p;

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Boshlang'ich sinflarda integratsion darslar va ularni tashkil etish mexanizmlari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning pedagogik, psixologik, metodik, ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilish va pedagogik zaruriyat ekanligini asoslash;

mobil texnologiyalardan foydalanishning metodik ta'minoti asosida funksional modelini takomillashtirish;

mobil texnologiyalardan foydalanishning innovatsion texnologiyalari va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanish jarayonining samaradorligini belgilash, ta'lim va tarbiya mazmunini takomillashtiruvchi ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanish jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlarida Namangan, Navoiy, Andijon davlat pedagogika institutlarining 492 nafar bakalavr talabalarini respondent sifatida ishtirok etdilar.

Tadqiqotning predmetini "boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning mazmuni va o'qitish jarayonida zamonaviy mobil texnologiyalardan foydalanishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Maqsadga erishish va qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun psixologik, pedagogik va metodik manbalar, didaktik materiallar, o'quv reja va dasturlar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, anketa so'rovi (google forms), mobil test, modellashtirish, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlashdan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning psixologik (shaxsda axborotni idrok etish va qayta ishlash), talabalarni intellektual faolligiga doir didaktik xususiyatlari (shaxsga yo'nalganlik, o'quv-bilish faoliyatining boshqarish, hamkorlik, ijodkorlik) ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilish va pedagogik zaruriyat ekanligini aniqlashtirilgan;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini mobil texnologiyalardan foydalanib o'qitishni tashkil etishga doir funksional modelning metodik komponenti o'quv harakatlari izchilligining (tayyorlov, loyihalash, amalga oshiruvchi, yakuniy) innovatsion dars tuzilmasi (adaptiv, amaliy, umumlashtirish, refleksiya) bilan qayta aloqasi intensivlash darajasiga muvofiq takomillashtirilgan;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini mobil texnologiyani qo'llashning metodik shartlari (uzviylik, bosqichma-bosqich amalga oshirish, yaxlitlik, natijaviylik) mujassam, yaxlit ijodiy tasavvurlarni rivojlantirish (mediyani yaratish, ishlab chiqarish) mobil texnologiya (axborotni qabul qilish) rivojlantiruvchi natijador omil ekanligi asoslangan;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanish jarayonining samaradorligini belgilash, ta'lim va tarbiya mazmunini takomillashtiruvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning pedagogik, psixologik, metodik xususiyatlarini inobatga oluvchi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish uchun "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan va nashr ettirilgan;

mobil texnologiyalardan foydalanishning metodik ta'minotini hisobga olgan holda ta'limiy o'quv platforma va mobil ilovalar ishlab chiqilib, ularning har biriga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvohnomalari (guvohnoma № DGU 13297, DGU 15661, DGU 36251, DGU 36252) olingan;

mobil texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchidan ko'p vaqt talab qilmaydigan, har qanday zamonaviy mobil qurilmalarda yetarlicha sodda va qulay bo'lgan ilmiy bilimlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy platforma (<https://lms.bsat.uz/>) va "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fanidan mobil ilova dasturi (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi mualliflik guvohnomasi № DGU 36536) ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, unga mos darajadagi metodlar va tadqiqot metodikalari majmuasining, zamonaviy matematik-statistika usullarining ishonchliligi va samaradorligi natijalarining to'g'ri talqin qilinishi bilan ta'minlangan. Zaruriy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar va metodik tayyorlashda, metodik ishlarning mazmuni sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini, metodologik yondashuvlar asosida mazkur tadqiqotning nazariy-ilmiy ahamiyati boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalarni qo'llashning ilmiy asoslarini keng yoritib beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa ushbu metodikani ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishdan iborat funksional modeli (tashkiliy-pedagogik tuzilmasi) tavsiya etilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun mo'ljallangan o'quv dasturlari, o'quv-metodik qo'llanmalar, elektron va boshqa didaktik vositalarning metodik

qo'llashda, soha bo'yicha mutaxassisleri, o'qituvchilar, mahorat maktabi hududiy markazlari pedagoglari o'z pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanish metodikasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning psixologik, talabalarni intellektual faolligiga doir didaktik xususiyatlari ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilish va pedagogik zaruriyat ekanligini aniqlashtirishga doir tavsiyalar boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun mo'ljallangan "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-buyrug'i asosidagi 388-49-son guvohnomasi). Natijada, oliy ta'lim tizimida talabalarni mobil qurilmalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish va uslubiy ta'minlash modeli ishlab chiqish metodikasini nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish imkonini oshirishga erishilgan;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini mobil texnologiyalardan foydalanib o'qitishni tashkil etishga doir funksional modelning metodik komponenti o'quv harakatlari izchilligining innovatsion dars tuzilmasi bilan qayta aloqasi intensivlash darajasiga muvofiq takomillashtirishga doir tavsiyalar boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun ishlab chiqilgan milliy o'quv dasturi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 3-apreldagi 02/01-01-115-son ma'lumotnomasi). Natijada, mobil texnologiyalardan foydalanishning metodik ta'minoti asosida funksional modelini takomillashtirishga erishilgan;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini mobil texnologiyani qo'llashning metodik shartlari mujassam, yaxlit ijodiy tasavvurlarni rivojlantirish mobil texnologiya rivojlantiruvchi natijador omil ekanligi asoslashga doir tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T.O'rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida 2024-yil davomida bajarilgan №4/24-j-sonli "Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari hamda maktab o'quvchilari uchun zilziladan himoyalaniшни o'rgatuvchi multimediali dasturiy ta'minot yaratish" mavzusidagi amaliy loyihadagi belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi 2025-yil 16-apreldagi 403-03-son ma'lumotnomasi). Natijada, mobil texnologiyalardan foydalanishning asosiy elementi sifatida axborot almashinuvi jarayonini prognozlash va innovatsion texnologiyalari hamda pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirishga erishilgan;

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanish jarayonining samaradorligini belgilash, ta'lim va tarbiya mazmunini takomillashtiruvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishga doir taklif va tavsiyalar "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-buyrug'i asosidagi 388-49-son guvohnomasi). Natijada, boshlang'ich ta'lim bakalavriat yo'nalishi talabalarini uchun mobil

texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish samaradorligini oshirishga hamda ta'lim va tarbiya mazmunini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida jamoatchilik muhokamasidan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan. 5 ta dasturiy mahsulotga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk Agentligidan mualliflik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning nazariy metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanish dolzarb pedagogik muammo sifatida xorijiy davlatlarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida, ilmiy manbalarga tayangan holda o'rganilgan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga xos bo'lgan pedagogik va psixologik jihatlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Tahlillar asosida quyidagilarni ta'kidlash lozimki, bo'lajak boshlag'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularni mobil qurilmalardan dars jarayonida samarali foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanib dars samaradorligini yanada oshirish, "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fanini mobil texnologiyalar asosida o'qitish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammo ekanligi borasida so'z yuritilgan.

Mobil texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosi ko'chma, ya'ni ko'tarib yurishga qulay bo'lgan, harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lgan qurilmalar hisoblanadi va ular yordamida qo'llaniladigan dasturiy ta'minot majmuasi bilan bog'liqdir. Mobil texnologiyalar zamonaviy aloqa, ta'lim, va axborot olishning muhim qismlaridan biri bo'lib, foydalanuvchilarga turli xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Bu texnologiyalar odatda simsiz ulanish va har qanday joyda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Mobil texnologiyalar orqali foydalanuvchilar internetdan, ilovalardan va turli xizmatlardan istalgan joyda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mobil ta'lim (mobile learning) – bu mobil qurilmalar va texnologiyalar yordamida ta'lim olish jarayonidir. Mobil ta'limda smartfonlar, planshetlar, qo'lga taqiladigan qurilmalar kabi mobil texnologiyalar qo'llaniladi. Ushbu ta'lim usuli o'quvchilarga har qanday joyda va vaqtda bilim olish imkonini berib, o'quv jarayonini yanada qulay, interaktiv, qiziqarli va moslashuvchan qiladi.

Mobil texnologiyalar asosida o'qitish – bu o'quv jarayonida mobil qurilmalar, masalan, android, iOS smartfonlar, planshetlar yoki netbuklardan foydalanish orqali bilimlarni yetkazish va o'zlashtirish usuli hisoblanadi. Bu yondashuv o'qitish jarayonini qulay va moslashuvchan qilish bilan birga, talabalarning darsga qiziqishini oshirish, bilimlarni interaktiv tarzda yetkazish va nazorat qilish imkonini beradi. 1-jadvalda xorijiy olimlar, MDH olimlari va o'zbek olimlari tomonidan mobil texnologiyalar foydalanib o'qitish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga tayangan holda dars jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanishning afzalliklariga va kamchiliklariga ajratib chiqdik:

1-jadval

Ta'lim jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari

№	Mobil texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari	Mobil texnologiyalardan foydalanishning kamchiliklari
1	Istalgan joyda zarur ma'lumotlarni qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, olish, aloqada bo'lish va mashg'ulotlarda qatnasha olish	O'qituvchi talabalarning shaxsiy qurilmasidan to'g'ri maqsadda foydalanishini nazorat qilish imkoniyatining kamligi
2	Mobil telefon yoki planshet orqali internetga tezkor ulanish	Shaxsiy qurilmada internet tarmog'iga ulanishning imkoni yo'qligi
3	Har qanday tarmoqdan foydalanish mumkin bo'lgan shaxsiy va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyati	Dars jarayonida talaba mavzuga oid bo'lmagan ma'lumotlardan foydalanishi
4	O'qituvchi va talaba jamoasi bilan doimiy aloqa qila olish	Talabaning shaxsiy qurilmasining yo'qligi
5	Talabaning shaxsiy kasbiy o'quv maydonini shakllantirish	Talabaning shaxsiy smartfonini quvvatining tugab qolishi
6	Talabalar shaxsiy qurilmalaridan foydalanishi orqali dars jarayonida zamonaviy texnik qurilmalar bilan ta'minlanganligi	
7	Avtomatik baxolash tizimi imkoniyatining mavjudligi	
8	Uzluksiz ta'lim olish uchun ko'nikmalarni rivojlantirish	
9	Mobil texnologiyalardan dars mashg'ulotlari jarayonida foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirish	
10	Individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati	

Android va iPhone smartfonlarining ommalashuvi mobil texnologiyalardan ta'limda keng foydalanish imkonini yaratdi. 2010-yilda Apple iPadning taqdim etilishi bilan esa ta'lim uchun maxsus ilovalar (Khan Academy, Duolingo) ommalashdi. Bu ilovalar talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni qulaylashtirdi va ta'lim jarayonini interaktiv qildi. Bu davrda mobil texnologiyalar yordamida ta'lim oluvchi o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni bilim olish jarayoniga faol jalb qilish imkoniyatlari oshdi. 2010-yillardan boshlab Coursera, Udacity va edX kabi ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) platformalari paydo bo'ldi. Bu platformalar mobil ilovalar orqali ta'lim olish imkonini yaratdi va talabalar dunyoning istalgan burchagidan onlayn kurslarga kirish imkoniga ega bo'lishdi. Sharples, Taylor va Vavoula mobil texnologiyalar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini real vaziyatlarda qo'llash imkoniga ega bo'lishlari, ta'limni yanada samarali va hayotiy qilishini ta'kidlaydilar.

COVID-19 pandemiyasi mobil texnologiyalarning ta'limda qo'llanishini tezlashtirdi. Pandemiya ta'lim jarayonida masofaviy va mobil texnologiyalarning qanchalik zarur ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Mobil qurilmalar yordamida o'quvchilar zoom, google classroom, microsoft teams kabi platformalarda darslarga qatnashib, bilim olishda davom etishdi. Bu davrda talaba va o'qituvchilarga vaqt va joy cheklovlarisiz ta'lim olish imkoniyati berildi. 2020-yillar davomida gibridd ta'lim-ya'ni auditoriyada va onlayn shaklda ta'lim olishni birlashtiruvchi model keng tarqaldi. Talabalar darslarda ishtirok etishda mobil ilovalar va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanib, ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan qildilar.

Ma'lumki, mobil texnologiyalardan foydalanib o'qitishni tashkil etish shakllari, metodlari va vositalari o'quv jarayonini muhim elementlari hisoblanadi. Mobil texnologiyalardan foydalanib ta'limni tashkil etish shakllari zamonaviy ta'lim tizimini yanada moslashuvchan va interaktiv qiladi. Mobil texnologiyalar asosida o'qitish aralash(Blended learning) ta'lim, o'yinli(gamifikatsiya) asosidagi ta'lim, mobil ta'lim (m-learning) ta'lim, vizual texnologiyalar asosidagi ta'lim, teskari (flipped classroom) ta'lim shakllari va mobil texnologiyalardan foydalanib o'qitishni tashkil etish vositalari batafsil tahlil qilingan.

Aralash (blended learning) ta'lim. Aralash ta'lim bu online hamda an'anaviy talimning o'zaro aralashgan holati hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanayotgan bir paytta online hamda an'anaviy ta'limning aralashuvi tobora dolzarb sohalardan biriga aylangan. Aralash ta'lim talabalarda o'z faoliyatini tashkil qilishda yordam beradi. Aralash ta'lim modeli mobil texnologiyalar yordamida an'anaviy va onlayn o'qitish metodlarini birlashtiradi.

O'yinli ta'lim (gamified learning). O'quv jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali talabalarni rag'batlantirish va ularning o'rganish jarayonidagi qiziqishlarini oshirishga qaratilgan ta'lim usulidir. Bu yondashuv o'yin mexanizmlaridan, masalan, ballar, reytinglar, mukofotlar va raqobat elementlaridan foydalanadi va u talabalar o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantirish, o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va o'rganish jarayonida yanada faol ishtirok etishlariga yordam beradi. O'yinli ta'limning asosiy maqsadi o'quv

jarayonini talabalar uchun qiziqarli qilish, ularda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish va o'rganishga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirishdir.


Mobil ta'lim (m-learning). Bu mobil qurilmalar, masalan, smartfonlar, planshetlar, va boshqa ko'chma texnologiyalar orqali ta'lim olish usuli. Ushbu usul masofaviy o'qish imkoniyatini taqdim etadi va talabalarga istalgan vaqtda va istalgan joyda bilim olish imkoniyatini yaratadi. M-learning asosan zamonaviy texnologiyalar va tezkor internet aloqasi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim tizimiga o'rganish usullarini yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. Mobil ilovalar va platformalar orqali o'quv jarayonini yanada interaktiv qilish mumkin, bu esa bilimni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi.

Vizual texnologiyalar asosidagi ta'lim. Ta'lim jarayonida vizual vositalar va texnologiyalardan foydalanish orqali talabalar uchun ma'lumotni tushunarli va qiziqarli qilish usuli hisoblanadi. Vizual o'qitish texnologiyalari orqali o'quv materialini taqdim etishda ko'rgazmali materiallar, infografikalar, animatsiyalar, video darslar, virtual va qo'shilgan reallik elementlari kabi vositalardan foydalaniladi. Ushbu texnologiyalar talabalarining diqqatini jalb qilish, bilimni chuqurroq o'zlashtirish va qiziqishni oshirishga yordam beradi.

Teskari (flipped classroom) ta'lim. An'anaviy dars jarayonini qayta tashkil etuvchi o'qitish usuli bo'lib, unda dars va uy vazifalari o'rin almashadi. An'anaviy darslarda o'qituvchi asosiy ma'lumotni auditoriyada tushuntiradi va talabalar keyinchalik mustaqil ravishda uyda mashq bajaradi. Teskari ta'limda esa o'quvchilar asosiy bilimlarni avval uyda video ma'ruza, o'qish materiallari yoki boshqa onlayn resurslar orqali o'rganadilar, sinfda esa ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llash, savol-javob, munozara va hamkorlikda muammolarni hal qilish orqali mustahkamlashadi.

Shunday qilib, o'quv jarayonida zamonaviy mobil texnologiyalaridan foydalanish nafaqat axborotni turlicha namoyish qilish, balki talabalar mehnatini yangicha tashkil etish, ularning ijodiy salohiyatini faollashtirish, motivatsiyasini oshirish imkonini beradi. Oliy ta'lim tizimida mobil texnologiyalarni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi ham moslashishga asoslangan individual ta'limni amalga oshirish, mobil ta'limning moslashuvchan tizimining o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olishi, foydalanuvchiga, uning odatlariga, ko'nikmalariga, motivatsiyasi va hozirgi joylashuviga ham bog'liq bo'lar ekan.

Dissertatsiyaning "**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning metodik ta'minoti**" deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning metodik modeli, mobil texnologiyalardan foydalanishda ta'lim metodlari tizimini yaratish, mobil ta'lim metodlari tizimini qo'llash metodikasi, mobil va bulutli texnologiyalarni umumlashtiruvchi ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalardan iborat metodik tavsifiya va funksional model ishlab chiqilgan (1-rasm).



1-rasm. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning funksional modeli

Turli masalalarni hal qilishda yordam beradigan, o‘z faoliyatining vositasi sifatida mobil texnologiyalar nisbatan talabalarning nuqtai-nazarini shakllantirish lozim. Bu borada turli xil mobil ilovalar va platformalar bilan muayyan vazifalarni hal qilishning maqbul vositalari va usullarini tanlashga to‘g‘ri keladi. Biz tomonimizdan “Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari” fanidan boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarini mobil texnologiyalardan foydalanib o‘qitish bo‘yicha platforma yaratilgan va <https://lms.bsat.uz> manzilga joylangan.

Mobil texnologiyalar o‘quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatganligi sababli, ushbu tadqiqotda talabalar faoliyatining turli shakllarini aniqlash va ularning didaktik vazifalar bilan bog‘liqligiga asoslangan ta‘lim metodlarini tasniflash taklif etilgan.

Pedagogik vazifa—bu o‘qitish va tarbiya jarayonida aniq maqsadlarga erishish uchun hal etilishi lozim bo‘lgan didaktik yoki tarbiyaviy masaladir.

Pedagogik vazifalar o‘qituvchi oldida turgan maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi va ta‘lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagi keltirib o‘tilgan ma‘lumotlarga tayangan holda, mobil texnologiyalarga asoslangan mobil o‘qitish metodlarini qo‘llash uchun bir nechta dasturiy vositalardan foydalanish zarur bo‘ladi. Shuning uchun ushbu platformalar, veb xizmatlar, ilovalar, dasturiy vositalar va ularning manzillari ro‘yhati 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

O‘qitish metodlari va unga tegishli dasturiy vositalar

O‘qitish metodi	Asosiy veb-xizmat yoki dastur	Qo‘llab-quvvatlanadigan platformalar manzili	O‘xshash dasturlar yoki ilovalar
Mobil so‘rov va ovoz berish metodi	Plickers	https://www.plickers.com/	Socrative, Kahoot, Quizizz va boshqalar.
Bulutli texnologiya metodi	Google Classroom	https://edu.google.com/workspace-for-education/products/classroom/	Microsoft Office 365 Education
Mobil qidiruv metodi	O‘rnatilgan mobil ilovalar	https://www.google.com/ https://www.rambler.ru/ https://www.yahoo.com/ https://www.uz/	Google, nigma, rambler, yahoo va boshqa qidiruv tizimlari
Vizual dasturlash metodi	Blockly	https://blockly.games/	AppInventor
Veb-kvest metodi	Joyteka Learnis	https://joyteka.com/ru/ https://www.learnis.ru/	Joyteka LearningApps
Interfaol video metodi	Vizia	https://vizia.ru/portfolio https://edpuzzle.com/	PlayPosit, Edpuzzle

Podkast metodi	Open Broadcaster Software	https://obsproject.com/	VLC, CamStudio, Adobe captivate
Mobil viktorina metodi	Viktorina	https://www.socrative.com/ https://kahoot.com/	Socrative, Kahoot, va boshqalar.
Kengaytirilgan xaqiqat metodi	HP Reveal, QR-coder	https://me-qr.com/ru/	QR kod generatorlari


Mobil so‘rov va ovoz berish metodidan foydalanish

O‘qituvchi munozarali vaziyatni yaratish va talabalar bilan o‘tkazilgan so‘rov natijalarini o‘zaro tahlil qilishda mobil so‘rov va ovoz berish metodidan foydalanishi uchun Plickers veb-ximatidan foydalanishi mumkin.


O‘qituvchi guruh va talabalar ro‘yxatini shakllantiradi. Har bir talabaga alohida raqam beriladi. Raqamlar guruhdagi talabalar sonidan kelib chiqib 1 dan 63 gacha berilish imkoniyati mavjud (2-rasm).

Ro‘yxatdagi raqamlarga ko‘ra talabalarga shu raqamlarga mos alohida kartalar beriladi (3-rasm). Bu raqamlarga 1 dan 63 gacha mos kartalarni Get Plickers Cards bo‘limidan olish mumkin.

O‘qituvchi tomonidan keyingi bosqichda mavzu bo‘yicha so‘rovlar ombori yaratiladi. So‘rovlarni ikki hil ko‘rinishda yaratish mumkin. Birinchisi bir to‘g‘ri



2-rasm. Guruh va talabalar ro‘yxatini yaratish



3-rasm. Karta na‘munalarining ko‘rinishi

javobli, bunda 1 ta to‘g‘ri javob va 3 ta noto‘g‘ri javobni o‘z ichiga oladi. Ikkinchisida esa xa yoki yo‘q javoblarni o‘z ichiga oladi. Tayyorlangan so‘rov savollari guruhga beriladi.

Shunday so‘ng o‘qituvchi tayyorlangan savollarni talabalarga videoproektor orqali taqdim qiladi. Talabalar so‘rovnoma savollarini o‘qib, o‘zlari to‘g‘ri deb bilgan javoblarini tanlaydilar. Bunda talabalar to‘g‘ri javoblarni tanlashlari uchun kartadagi yozilgan harf yuqorida bo‘ladi va kartani yuzini o‘qituvchiga ko‘rsatadilar. O‘qituvchi o‘zining mobil qurilmasi orqali auditoriyadagi kartalarni skanerlaydi va talabalarining javoblarini avtomatik tarzda aniqlaydi. Natijalar bir zumda tayyor bo‘ladi va natijalar bilan talabalarni muxokama qilish uchun

tanishtirish mumkin bo'лади. Bu esa xatolarni shu yerning o'zida muhokama qilish imkonini beradi (4-rasm).



4-rasm. So'rovnoma savoliga javob berilgan natijaning ko'rinishi

O'tkazilgan mobil so'rov natijalari asosidagi ma'lumotlarni o'qituvchi csv formatda yuklab olishi yoki Microsoft Excel dasturi orqali ochishi mumkin.

Oddiy qog'ozda olingan so'rovnoma o'rniga elektron shakldagi mobil so'rovlarni tashkil qilish uchun Google forms, Telegram, Socrative, Kahoot kabi dasturiy vositalar foydalanib ham amalga oshirish mumkin.


Podkast metodidan foydalanish

Podkast texnologiyasidan, xususan, skrinshotdan foydalanish (auditoriyada yoki uy vazifasini bajarishda) o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:


–ekran yozuvini videoga oladigan dasturiy vositalar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlash;

–ekran yozuvi yoki screenshot tayyorlash uchun amaliy vazifalarni tayyorlash;

Ushbu metod talabning amaliy ishining borishi to'g'risida videoko'rsatuv hisobotini tayyorlashdagi faol ishini nazarda tutadi. Windows operatsion tizimini o'rnatish va windows operatsion tizimida ishlab bo'yicha taqvim rejada ushbu mavzuni o'rganish uchun ikki soat ajratilganligi sababli, skrinshot texnologiyasini qo'llash tavsiya etiladi (5-6 rasmlar).



5-rasm. Virtual qurilmaga operatsion tizim o'rnatish jarayoni




6-rasm. Virtual qurilmadan foydalanish oynasi

Interfaol video metodidan foydalanish

Kompyuter platformalari va mobil ilovalari bilan ishlash uchun interaktiv videodan foydalanish videomaterialga tegishli savollarni kiritish orqali nazariya va

amaliyotni bog'lash imkonini beradi. Edpuzzle – bu ta'lim jarayonida interfaol video darsliklar yaratish va ulardan foydalanish imkonini beruvchi onlayn platforma. Bu dastur orqali o'qituvchilar videolarga savollar, izohlar va test topshiriqlari qo'shib, o'quvchilar bilimni baholashlari mumkin.

O'qituvchi Edpuzzle platformasiga kirgandan so'ng o'zining mavzusiga mos videoni "search" bo'limidan qidiradi va ochiq manbaalardan mosini tanlaydi. Videoni tanlagandan so'ng edit tugmasini bosadi va test, ochiq savol, audio yozuv va izohlarni videoning kerakli daqiqalariga joylab chiqadi (7-rasm). Tayyor bo'lgandan keyin finish tugmasini bosadi va Assign to a class tugmasi orqali guruh talabalariga videoni biriktiradi.



7-rasm. Videoni qidirish va tanlash oynasi

Talabalar ushbu interaktiv videoni ko'rish davomida test va savollarga javob berib ketadilar. Test va savollar javob bermasdan videoni o'tkazish imkonsiz.


Mobil viktorina metodidan foydalanish

Guruhda mobil viktorina tashkil qilish uchun Quizizz, Kahoot, Google forms, Ispring quizmaker8 kabi xizmatlardan foydalanish mumkin (8-rasm). Bu esa o'z navbatida talabalarni darsda bo'lgan qiziqishlarini oshirishga imkon beradi.



8-rasm. Viktorina yaratish (Quizizz veb-xizmati)

Viktorina tayyor bo'lgandan keyin o'qituvchi start tugmasini bosadi va talabalar viktorinaga kirishlari uchun mahfiy raqam taqdim qiladi (9-rasm).




9-rasm. Viktorinani boshlash

Guruhdagi barcha talabalar viktorinani boshlagandan keyin o'qituvchi viktorinaga kirishni cheklab qo'yish imkoniyati bor. O'qituvchi talabalarni viktorinada qay holda qatnashayotganliklarini kuzatib borishi mumkin.

Veb-kvest metodidan foydalanish

